



METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF HUMAN PERFECTION AND THE DISCIPLINE OF THE SELF IN SUFI PHILOSOPHY

Salimjon Evatov

Associate Professor at Fergana State University

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Sufism, human perfection, self-discipline, nafs education, Sharia, Tariqa, Ma'rifa, Haqiqa, Ahmad Yassawi, Central Asian Sufism.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article analyzes the problem of human perfection in Sufi philosophy through the dialectical unity of Sharia, Tariqa, Ma'rifa, and Haqiqa. Based on the teachings of Central Asian Sufi traditions such as Yassawiyya, Khojagan, and Kubrawiyya, the study highlights the integral role of self-discipline (nafs education) in achieving spiritual and moral maturity. Drawing on the ideas of Ahmad Yassawi, Yusuf Hamadani, Abdulkhaliq Ghijduwani, and Mustamli Bukhari, the article examines anthropological, ontological, and epistemological aspects of Sufism. It also reveals the harmony between Sufi philosophy and Islamic doctrine, emphasizing the synthesis of rational approaches and mystical-intuitive knowledge within Sufi thought.

TASAVVUF FALSAFASIDA INSON KAMOLATI VA NAFS TARBIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI

Salimjon Evatov

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori

Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: tasavvuf, inson kamoloti, nafs tarbiyasi, shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat, Ahmad Yassaviy, Markaziy Osiyo tasavvufi.

Annotasiya: Ushbu maqolada tasavvuf falsafasida inson kamoloti muammosi shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat bosqichlari o'zaro dialektik aloqada tahlil qilingan. Markaziy Osiyo tasavvufiy maktablari, xususan, yassaviylik, xojagon va kubraviylik tariqatlari

ta'limotida insonning ma'naviy-axloqiy kamoloti nafs tarbiyasi bilan uzviy bog'liq ekanligi ilmiy jihatdan yoritilgan. Ahmad Yassaviy, Yusuf Hamadoniy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Mustamliy Buxoriy kabi mutafakkirlarning qarashlari asosida inson, borliq va bilish masalalari falsafiy tahlil etilgan. Maqolada tasavvuf ta'limotining islom aqidasi bilan uyg'unligi, shu bilan birga undagi ratsional va mistik-intuitiv bilish usullarining o'zaro bog'liqligi ochib berilgan.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ НАФСА В ФИЛОСОФИИ СУФИЗМА

Салимжон Эватов

Доцент Ферганского государственного университета

Доктор философии (PhD) по философским наукам

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	суфизм,	Аннотация:	В статье
совершенство человека, воспитание нафса, шариат, тарикат, ма'рифат, хакикат, Ахмад Яссави, суфийская философия Центральной Азии.	суфизм,	рассматривается	проблема
		совершенствования человека в суфийской философии через диалектическое единство этапов шариата, тариката, ма'рифат и хакикат. На основе учений центральноазиатских суфийских орденов — яссавийя, ходжаган и кубравийя — раскрывается значение воспитания нафса как ключевого условия духовно-нравственного развития личности. Анализируются философские взгляды Ахмада Яссави, Юсуфа Хамадани, Абдулхолика Гиждувани и Муста'мли Бухари в контексте антропологии, онтологии и теории познания. В статье показана гармония суфийской философии с исламским вероучением, а также взаимосвязь рациональных и мистико-интуитивных форм познания.	проблема совершенствования человека в суфийской философии через диалектическое единство этапов шариата, тариката, ма'рифат и хакикат. На основе учений центральноазиатских суфийских орденов — яссавийя, ходжаган и кубравийя — раскрывается значение воспитания нафса как ключевого условия духовно-нравственного развития личности. Анализируются философские взгляды Ахмада Яссави, Юсуфа Хамадани, Абдулхолика Гиждувани и Муста'мли Бухари в контексте антропологии, онтологии и теории познания. В статье показана гармония суфийской философии с исламским вероучением, а также взаимосвязь рациональных и мистико-интуитивных форм познания.

Kirish. Tasavvufning markaziy mavzusi eng avvalo, uning shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqatdan iborat ma'naviy yuksalish yo'llarini bir-biriga dialektik tarzda bog'lab o'rganishdir. Mutasavviflar bu to'rtlikni bir-biridan ajratmay, aksincha, ularning aloqadorligi, hamohangligini saqlab qolishga urinishgan. Tasavvuf falsafasida insonning o'z "Men"idan ozod bo'lishi, botiniy tarbiya va hissiyotlari orqali Olloh bilan yaqinlashishiga e'tibor qaratilgan. Unda pir va shogirdlik,

murshid va murid munosabatlari hamda kamolotga erishishning to'rt bosqichi: shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat mavjud, deb qaralgan.

Materiallar va metodlar

Tasavvufni turkiy tilda sharhlagan Ahmad Yassaviy ham tariqat va shariatning o'zaro vobastaligini sodda va tushunarli tilda bayon qilgan. Bu haqda mutasavvif quyidagi mazmunda fikr bildirgan: "Har kim qilsa tariqatni da'vosini, avval qadam shariatga qo'yimoq kerak. Shariatning ishlarini ado qilib, Andin so'ngra bu da'voni qilmoq kerak". Ahmad Yassaviyning ta'kidiga ko'ra, shariatni o'rganmasdan turib tariqatga qadam qo'yish mumkin emas, shariatsiz tariqat va tariqatsiz haqiqat yo'q. Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlari yassaviylik, xojagon, kubraviylik tariqatlarining barchasida tariqat bosqichiga o'tishdan oldin shariatni o'zlashtirish talabi qo'yilgan. Tariqatga qadam qo'ygan odam shariatga suyanmasa, "shayton kelib" uning iymoniga chang soladi. Ammo tariqat yo'li og'ir va mashaqqatli, "Haqdan qochg'on nojinslar" bu yo'lga chidam-bardosh bermaydi. Mutasavvif shoirning yuqoridagi fikrlari quyidagi to'rtlikda o'z aksini topgan.

Shariatdan murod - yo'lga kirmoq,

Tariqatdan murod - nafsdan kechmoq,

Haqiqatdan murod - jondan kechmoq,

Jondan kechmay ishq sharobin ichsa bo'lmas.

Islom ta'limotida ko'tarilgan masalalar hech bir mutasavviflar yoki tasavvuf tariqatlarining e'tiboridan chetda qolmagan. To'g'ri, ayrim tariqatlarda aqida masalalari (hululiylik, xalloyiylik), islom ta'limotidagi muammolarni hal qilishda noto'g'ri talqin qilishlar, adashishlar, asl mohiyatni tushunmaslik va shunga o'xshash holatlar uchragan. Tasavvuf falsafasi g'oyalari bilan islomning aqidaviy ta'limoti, shariat ko'rsatmalaridan ancha-muncha chetlashadigan yuksak orifiy va ayni paytda hurfikr tafakkurni vujudga keltirgan. Lekin bu tasavvufning islomdan butunlay chetlashgan degan fikrni yuzaga keltirmaydi. Tasavvuf tariqatlari islom ta'limotidagi masalalar yuzasidan xilma-xil g'oya va qarashlarni o'rta tashlagan bo'lsalarda, lekin ularda bir maqsad sari intilish ustivor bo'lgan hamda har bir masalaga yondashuvda ular islom qobig'idan chiqmaslikka harakat qilishgan.

Muhokama va natijalar. Hakimiylik tariqatining asosiy mavzusi bo'lgan valoyat masalasi ham islomning asl mavzulari qatoriga kiradi. Yusuf Hamadoniy va Abdulxoliq G'ijduvoni nazariyalariga asoslagan xojagon tariqatidagi "Dil ba yoru, dast ba kor" ("Ko'ngil Oллоhda, qo'l - ishda bo'lsin"), - degan g'oyaning asl mazmuni ham Qur'oni Karimda namoyon bo'ladi. Markaziy Osiyo mutasavviflari va tasavvufiy tariqatlar g'oyalarida islom ta'limotidan tashqari, falsafiy mushohadalarga ham keng o'rin berilgan. Jumladan, "Sharh at-Ta'arruf" asari muallifi Mustamliy Buxoriyning tasavvufiy qarashlarida Sharq peripatetizmi va yangi afltunchilik g'oyalarining

in'ikosini ko'rish mumkin. Mustamliy Buxoriyning falsafiy qarashlari aynan qaysi falsafiy maktab ta'sirida bo'lganligi alohida tadqiqot mavzusi, bu to'g'rida biror-bir xulosa chiqarishga hali erta bo'lsa-da, «Sharh at-Ta'arruf»da zamon va makon, sabab va oqibat, shakl va mazmun, butun va qism, asl va far', sobiq va lohiq kabi boshqa ko'plab falsafiy, shuningdek, mohiyat, xulosa, dalil, dalillanuvchi va shu kabi ko'plab mantiqiy kategoriyalarning keng qo'llanishi bilan bir vaqtda, bir tomondan, Mustamliyning bilish borasida Sharq aristotelizmiga (Sharq peripatizmiga) uyg'un ravishda ratsional yondashuvlari, ikkinchi tomondan, yangi platonizmga xos mistik-intuitiv bilishga asoslangan mulohazalari kuzatiladi[1]. Islom ta'limotida olamga, tabiatga, borliqqa nisbatan bag'rikeng munosabatni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shunga hamohang tarzda Yusuf Hamadoniyning "Risola fi an-nal-kavna musaxxarun lil-inson" ("Inson va koinot haqida risola") asarida mutasavvifning borliq, tabiat falsafasiga oid qarashlari ilgari surilgan. Bu asarda Hamadoniyni insonning olamdagi jamiki mavjudotga, borliqqa bo'lgan munosabati, maxluqot orasida tutgan yuksak o'rni, har bir insonning koinotdagi zaruriy ashyolardan foydalanish darajalari hamda yo'llarini ko'rsatib bergan.

Falsafiy qarashlarda bo'lgani singari islom dinida, xususan Qur'on va hadislarda inson kamolotiga oid ma'naviy, ma'rifiy, axloqiy, tarbiyaviy, ijtimoiy g'oyalar o'z aksini topgan. O'z o'rnida tasavvuf ta'limotida ham inson, borliq, bilish muammosi, axloqiy kategoriyalar kabi inson hayoti bilan bog'liq ko'pgina narsalarga munosabat bildirilgan.

Bizning fikrimizcha, insonni metodologik nuqtai nazardan o'rganishda islom dini va uning muhim yo'nalishi hisoblangan tasavvuf ta'limoti yetakchi o'rinni egallaydi. Markaziy Osiyodagi tasavvufiy-falsafiy g'oyalarda asosiy o'rinni inson va uni o'rganish bilan bog'liq muammolar egallaydi. Ahmad Yassaviy ijodiga e'tibor berar ekanmiz, unda falsafaning umumnazariy muammolariga bag'ishlangan qator yo'nalishlarni ko'rishimiz mumkin. Jumladan, mutasavvifning olam va odam, antropologik, ontologik, aksiologik, estetik, praksiologik, axloqiy, ijtimoiy qarashlari diqqatga sazovordir. Ahmad Yassaviy tomonidan asoslangan yassaviylik tariqati g'oyalarida ham butun tirik mavjudot to'rtta kichik unsurlardan: suv, havo, olov va tuproqdan tashkil topgan. Insondagi barcha ijobiy fazilatlar va salbiy qiliqlar, odatlar ham o'sha to'rtta unsur bilan bog'liq bo'ladi. Olov va havoda do'zaxiy xususiyatlar mavjud bo'lsa, suv va tuproqda jannatiy fazilatlar mujassam bo'ladi. Xususan, insondagi manmanlik, kibrlanish kabi xususiyatlarning shakllanishida do'zaxiy olovning ta'siri bor. Olov insonni o'z ishqida kuydirib, Haqdan uzoqlashtiradi. Oxir-oqibatda bu "ishq" kibrga olib keladi. Odamlardagi yengiltakliklar havo bilan bog'liq. Suv va tuproq o'zida ezgulikni birlashtiradi. Xuddi shuning uchun ham, insondagi eng yaxshi fazilatlar suv va tuproq bilan aloqador bo'ladi[2].

Mutasavvifning antropologik qarashlarida insonning yaratilishi, inson borlig'i va eng asosiy g'oya insonlarning tasnifiga e'tibor qaratilganidir. Ahmad Yassaviy insonlarning o'ziga xos tarzda tasnifini ishlab chiqadi. Bu tasnif quyidagicha:

olim inson

odil inson

odobli inson

hur inson

ixlosli inson

kamtarin inson

komil inson

oshiq inson[3]

Tasavvuf falsafasida ijtimoiy-axloqiy masalalar ham o'z aksini topgan. Unda insonning ma'naviy kamoloti masalasi tasavvuf falsafasining asosiy jihatlaridan biri bo'lgan. Bunda shaxs va jamiyat munosabatlari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Nafsni tiyish, tartibga solish orqali shaxs va jamiyatga oid masalalar yechimi hal bo'ladi. Jamiyatdagi turli axloqsizliklar, korrupsiya, turli deviant holatlarning boshida nafs turadi. Tasavvuf falsafasida hattoki odamlarni turkumlarga bo'lishda ham nafs asosiy mezonlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Tasavvuf odamlarni uch toifa birinchisi martabai nafs - bu toifadagi kishilar Oллоh va uning kalomiga ishonadilar, ammo ko'proq hissiyotga berilgan bo'ladilar. Ularning joyi do'zaxdir, undan qutilish yo'li nafsni tiyishdir. Ikkinchi toifadagilar martabai qalb deyilib, qalb amri bilan ish tutadiganlar, Oллоh va uning Kalomini, Rasuli Akramni hissiyotdan ustun qo'yadiganlar va oxirgi uchinchi toifa martabai ruh deyilib, unga ruh kishilari kiradilar. YA'ni ular har tamonlama poklikka erishgan shayxlar va avliyolar mazkur toifaga kiradi.

Tasavvuf ta'limotida inson borlig'ining muhim tomoni bo'lgan nafs va uni tarbiyalash, meyorga solishga maxsus tarzda e'tibor berilgan.

Tasavvuf falsafasining asl maqsadi insonni komillik pog'onalariga yetaklashdir. Shu maqsadda tasavvuf inson tarbiyasini nafs tarbiyasidan boshlaydi va uni atroflicha chuqur tadqiq etadi. Inson kamoloti uchun eng katta dushman nafs ekanligini tushuntiradi. Abulabbos Ahmad ibn Adamiy nafsning xohish-istakka bog'liqligini qayd etib, nafsning inson kamoloti uchun to'siq ekanligini qayd etgan va "Tab'ning har xil odatlariga oshno qolish tab' egasini haqiqat darajalariga erishishidan to'sib qo'yadi", ya'ni har kim tab'idagi turli odatlar bilan orom olsa, haqiqatdan uziladi. Shu jihatdanki, "tab'lar nafsning qurol-aslahalaridir. Nafs esa hijobdir"[4] -deya bildirgan. Sahl Tustariy nafsqa qarshi kurashish masalasida "...riyozat chekish va mujohadalar qilish bu nafsni jilovlash uchundir. Agar kishi o'z nafsini tanimagan bo'lsa, unga riyozatu mujohada foyda bermaydi"[5] -mazmundagi fikrni ta'kidlagan.

Zunnun Misriyning fikricha, “Hijoblarning eng kuchlisi bu nafsni ko‘rib, uning tadbiriga ergashishdir”. Unga ergashish “Haqning rizosiga muxoliflik qilishdir. Haqqa muxolif bo‘lish barcha hijoblarning boshidir”[6] -deya qayd etgan.

Boyazid Bistomiy nafs masalasida shunday deydi: “Nafs shunday bir sifatdirki, u faqatgina botil ishlar bilan taskin topadi”.

“Nafs insonning moddiy o‘zligi, “Men” ligidir. Bizning botinimizda bir idora etuvchi, jismimizni, moddiy borlig‘imizni, hayot uchun zaruriy manfaatlarimizni qo‘riqlash va qo‘llash maqsadida faoliyat ko‘rsatuvchi ma’naviy bir borliq nafsdir”[7]. Junayd Bag‘dodiy nafs haqida fikr bildirganda “Kufning asosi nafsing murodiga yurishingdir”. Negaki, Haqqa taslim bo‘lishda nafsqa yaqin bo‘lish yo‘qdir. Agar undan yuz burmasa, u munkir bo‘ladi, munkir esa begonadir[8] -deydi. Bu iqtibos nafs insonni Haqdan, ya’ni o‘z asliyatidan begona qilib qo‘yishiga ishoradir.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, barcha so‘fiylar va mutasavviflar nafs yomon illat ekanligiga muttafiq bo‘lganlar va unga qarshi kurashishni maqsad qilganlar. Bu muammo Markaziy Osiyolik mutasavviflar va tariqatlar nazaridan chetda qolmagan. Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan mutasavvif Abu Bakr Kalobodiy ilmlar borasidagi qarashlarida inson nafs ofatlari ilmi, uning mohiyati, ma’rifatini, tamrinini, (ya’ni, mashaqqatini) uning xulqlari madaniyatini tushunadigan, dushmanning hiylalarini biladigan, dunyo fitnasidan boxabar bo‘lmog‘ini va fisqu-fasoddan ozod bo‘lish yo‘lini biladigan bo‘lishi kerakligini aytadi[9]. Bu ilm ilmi hikmat, ya’ni nafs vojib (qilinishi lozim bo‘lgan) amallarga (bajarishda barqaror) qoim bo‘lsa, uning tabiati solih bo‘ladi.

Tadqiqotlarimiz davomida Yassaviyning inson borlig‘iga oid muammolarini tahlil qilganimizda, mutasavvif qarashlaridagi insonning dushmanlari haqida ilgari surgan fikrlari diqqatga sazovordir. Mutasavvif shoir qarashlarining muhim va ibratli xususiyatlaridan biri - insonning o‘ziga nisbatan tanqidiy ko‘z bilan qarashi, o‘ziga nisbatan talabchanligi, murosasizligi bo‘lib hisoblanadi. Ahmad Yassaviyning fikricha, ayyorlik, gunohlarni yashirish o‘zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikrlari bilan Ahmad Yassaviy rostgo‘ylik, halollik, o‘z-o‘ziga talabchanlikni targ‘ib qilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Qiziq holat shundaki, insonning asosiy dushmanlarini Yassaviy tashqaridan ya’ni jamiyatdan emas, uning botinidan qidiradi va bularni nafs, kibr, riyo, yolg‘on deb ko‘rsatadi. Mutasavvifning fikricha, nafs buyuk dushman va balodir, nafs insonni ochko‘z, xudbin, shafqatsiz, egri yo‘lga boshlovchi va hirsga berilishiga olib keladi. Nafsning bitmas-tuganmas istaklari insonni Haqdan uzoqlashtiradi va shaytonga sherik qilib qo‘yadi.

Xojagon tariqati vakillari va izdoshlari ham bandalikni eng oliy daraja deb hisoblab, nafs va uning tarbiyasiga maxsus e’tibor berishgan va nafsni fano darajasigacha olib kelish yo‘llarini ko‘rsatishgan. Bu tariqatda bandaning ixtiyori to‘la ravishda ilohiy ixtiyor bilan uyg‘un bo‘lishi

va Haq rizoligiga erishish asosiy maqsad xisoblangan. Inson borlig'i va botinidagi nafs Abduxoliq G'ijduvoniyni ta'kidlashicha inson uchun birinchi to'siqdir. Shuning uchun "Nafsingizni ehtiyot qiling. Nafs botin ishdir. Kishi doimo Olloh bilan bo'lsin va xotirida o'zga narsaga yo'l qo'ymas" qo'ymasin"

Abduxoliq G'ijduvoniyni "Ma'rifatning kamoli nimada?" deb so'raganlarida, u kishi quyidagicha javob bergan: "Ma'rifatning chegarasi nafsni boshqarish va buning tadbiri halol narsalardangina bahramand bo'lmoqni odat qilmoqdur"[10].

Abduxoliq G'ijduvoniyni tasavvuf ta'limoti va falsafasining har bir rukniga ustozlaridan olgan bilimi, tajribasi va amaliy faoliyatidan kelib chiqib yondashgan. Jumladan, nafsni ammora haqida gapirganda, Muhammad(...) ning: «Biz kichik jihoddan qaytdik, endi katta jihatga - nafs bilan kurashishga tayyorlanaylik», degan hadisini dalil qilib, nafsqa qarshi qurol sifatida ochlik qilishi, sukut (xomushlik) pichog'i va tanholik naysasini ko'rsatadi.

Kubraviylik tariqatida nafsqa insonning qalbiy kasalliklariga sabab bo'luvchi, insonni turli mashg'ulotlar bilan chalg'itadigan illat deb qaralgan. Nafsni kuchaytiruvchi yomon axloqdan va hayvoniy orzularni yo'qotish uchun lafzi jalolni, ya'ni Olloh lafzini zikr qilishga, "zikri mufrid" deyilgan. Mutasavvif nafsni insonni dunyoga bog'laydigan bir zanjir, deb hisoblaydi va insonning asosiy vazifasi nafsni mahv etib, o'z irodasini chiniqtirib, ilohiylik kasb etishdan iborat deb hisoblagan. Nafsning tubanligini bilish - insonning o'z-o'zini, demakki, ilohiylikni anglashdir deb tushuntiradi:

Pinhon emas aslo - ichda bir dev bordir,

Boshini ko'tarmog'i uning dushvordir.

Iymonini ming martaba tahlil qildim:

Ul asli azal muslim emas, kuffordir.

Najmiddin Kubroning tasavvuf falsafasidagi eng katta xizmatlaridan biri "Ofoq va anfus" nazariyasiga asos solganligidir. Inson ruhiyati va botiniy olamini chuqur tadqiq etgan mutasavvifning mazkur nazariyasiga ko'ra, insoniy olam bilan ilohiy olam o'zaro dialektik aloqadorlik kasb etadi. Mutasavvif insonga olami sug'ro, olamga esa olami kubro, deya ta'rif berib, insonda ilohiylik sifatleri, ya'ni olami kubroning barcha xususiyatlari mavjud deydi.

Tasavvufda aks ettirilgan g'oyalar bir qarashda xilma-xil, ba'zan bir-biriga zid, ammo qiziqarli, turli ta'limotlardan va silsilalardan, qarashlardan vujudga kelgan va ularni birlashtirgan falsafiy oqimdir. Bizga ma'lumki, insoniyat tarixidagi turli xildagi ta'limotlar, qarashlarning vujudga kelishi zamon va makon muammolari bilan bog'liq. Tasavvuf ham xuddi ana shu tarzda zamon va makon muammolarini hal qilish maqsadida yuzaga kelgan ta'limot va falsafadir. Jamiyat ongini o'zgartirish va ijtimoiy hayotga yangilik olib kirish, inson ma'naviyatini yuksaltirish, xulq-atvor, axloq masalalarini tadqiq qilish, nafs, qalb, insonparvarlik, irodalilik, barkamollik, ezgulik,

ilm olish va boshqa shular kabi masalalar tasavvuf falsafasining asosiy aqidalariga aylandi. Shuni alohida qayd etish lozimki, tasavvufda bir nechta tariqatlar va silsilalar birma-bir almashinib yoki biri ikkinchisiga qo‘shilib, yangi bir tariqat vujudga kelgan bo‘lsa-da, insonning ma‘naviy, axloqiy, tarbiyaviy kamoloti masalasi biror-bir tariqat ahli e‘tiboridan chetda qolmagan.

Xulosa. Mutasavviflar butun jamiyat hayotiga ta‘sir qiladigan va u bilan bog‘liq bo‘lgan, inson bevosita his qiladigan bir qator real va abstrakt fenomenlarga e‘tibor qaratganlar. Shulardan biri axloqiy tarbiyadir. Bir qarashda tasavvuf ta‘limotida ilgari surilgan muammolar, fikrlar o‘zaro qorishib ketgandek umumiy bir holat sifatida ko‘zga tashlanadi. Lekin har biri alohida tahlil va tadqiq qilinganda, boshqacharoq dunyoqarashga ega bo‘lamiz. Axloqiy tarbiya masalasi ko‘pgina muhaddislar va mutasavviflarning diqqat markazida bo‘lgan. Bu mavzuga oid yirik-yirik asarlar yozilgan. Masalan, Junayd Bag‘dodiyning “Tasxix ul – irodat” (“Itoatkorlik bilan tozalanish”), asli balxlik Ahmad Xazruyining “Ar rioyat bi huquq Olloh” (“Olloh oldida tegishli qoidalarga rioya qilish”), G‘aznalik Abulhasan Hujviriyning “Kashf ul mahjub li arbob il qulub” (“Qalb egalari uchun hijobning ochilishi”), Nosiriddin Tusiyning “Axloqi Nosiriy”, Jaloliddin Davoniyning “Axloqi Jaloliy”, Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” (“Qalblarning sevgani”), vatandoshlarimiz Imom al-Buxoriyning “Al jomi’ as sahiyx”, Termiziyning “Adab ul- muridin” (“Muridlar uchun odob qoidalari”), Shayx Najmiddin Kubroning “Fi odob as-solikin” (“Soliklar odobi”), Aziziddin Nasafiyning “Zubdat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar qaymog‘i”), kabi ko‘plab yirik asarlar yozilgan. Shular asosida komil va barkamol inson axloqi, ma‘naviyati haqidagi qarashlar, g‘oyalar o‘rtaga tashlangan. Bir so‘z bilan aytganda, yuqoridagi ko‘rsatilgan asarlar o‘rta asrlarda o‘ziga xos tarzda axloq kodeksi bo‘lib xizmat qilgan. Tasavvuf ta‘limotida maxsus tadqiqot maydoniga tortilgan muammolardan biri axloq va axloqiy tarbiya masalasidir. Mutasavviflar insonni hamida (yumshoq, muloyim) axloq bilan bezanishi tarafdori bo‘lganlar va o‘zlari shu bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Xususan, Muhammad ibn Ali ibn al-Husayn ibn Ali ibn Abu Tolib tasavvufga axloq haqidagi ta‘limot sifatida tavsif berib, “...Tasavvuf bu xulqdir. Kimki sendan xulqda ziyoda bo‘lsa, u tasavvufda ham sendan ziyodadir”, ya‘ni tasavvuf bu xushxulqlilikdir. Kim xushxulqroq bo‘lsa u so‘fiyroqdir. Xushxulqlilik ikki xil bo‘ladi: biri xalq bilan bo‘lsa, biri Haq bilandir. Haq bilan xushxulqlilik bu Uning taqdiriga rozi bo‘lmoqlikdir. Xalq bilan xushxulqlilik esa Haq rizosi yo‘lida uning yoqimsiz suhbatlarining og‘irligini ko‘tarishdir, deya qimmatli fikrlarni bildirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rahimov K. Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta‘limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar). – Toshkent: “Akadernashr” 2020, –B. 116-120.

2. Чориев А. Инсон фалсафаси: Инсон тўғрисидаги фалсафий фикрлар тараққиёти. – Тошкент: “Ўзбекистон фаласуфлари миллий жамияти нашриёти” 2007. – Б.214.

3. Salih AÇIKGÖZ. “Felsefi Bir Problem Olarak Ahmed Yesevî’de İnsan”. Ankara: Ankara Yıldırım Beyazıt Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü. Felsefe Anabilim Dalı’nda Yüksek Lisans tezi. 2020. S. 67-93
4. Али ибн Усман аль-Худжвири. «Раскрытие скрытого за завесы». Старейший трактат по суфизму // Перевод с английского А.Орлова. - Москва: «Единство» 2004. – С.147.
5. Али ибн Усман аль-Худжвири. «Раскрытие скрытого за завесы». Старейший трактат по суфизму // Перевод с английского А.Орлова. - Москва: «Единство» 2004. – С. 195.
6. Али ибн Усман аль-Худжвири. «Раскрытие скрытого за завесы». Старейший трактат по суфизму // Перевод с английского А.Орлова. - Москва: «Единство» 2004. – С. 199.
7. Jo’shon. M.A. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. – T.: Cho’lpon, 1998. – B.13.
8. Али ибн Усман аль-Худжвири. «Раскрытие скрытого за завесы». Старейший трактат по суфизму // Перевод с английского А.Орлова. - Москва: «Единство» 2004. – С. 199.
9. Namozov B. Abu Bakr Kalobodiy tasavvufiy qarashlarining falsafiy asoslari. – Toshkent: “Fan” - B.42.
10. Sharipova O. Abduxoliq G’ijduvoni. –Buxoro: Buxoro, 2020.- B. 13.